

## ZUBTURUM BARGI TARKIBIDAGI DORIVOR MODDALARNING TIBBIYOTDAGI AHAMIYATI

*Oltiboyeva Mavsuma G'ulom qizi*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti*

*Farmatsevtika ishini tashkil qilish kafedrsi assistenti*

**Annotatsiya** Hozirgi kunda dori vositalarining ko'pchiligi ksenobiotiklarga kirib, ular organizmda zararli moddalarni hosil qilishi mumkin. Ular allergen, mutagen, kanserogen yoki sitotoksik ta'sirlarga ega bo'lishi mumkin. Shu sababli tabiiy dori vositalar va xalq tabobati yordamida davolashga ko'proq ehtiyoj ortib bormoqda. Aholi orasida ovqatlanish tartibiga to'g'ri rioya qilinmayotganligi natijasida keng tarqalayotgan me'da-ichak kasalliklari barchaga ma'lum. Zubtutum bargi xalq tabobatida foydalanishning uzoq tarixiga ega. Xalq tabobatida zubtutum bargidan foydalanishning asosiy usullaridan ba'zilariga tuxtalib o'tamiz.

**Kalit so'zlar:** alantoin, flavonoid, ekzema, sitotoksin.

Oltiboyeva Mavsuma G'ulom qizi

Assistant of the Department of

Organization of Pharmaceutical Business

Samarkand State Medical University

**Medicinal importance of medicinal substances contained in Zubtutum leaves**

**Annotation** Nowadays, most of the medicines contain xenobiotics and they can create harmful substances in the body. They can have allergenic, mutagenic, carcinogenic or cytotoxic effects. Therefore, the need for treatment with the help of natural medicines and folk medicine is increasing. Gastrointestinal diseases, which are spreading widely among the population as a result of not following the proper diet, are known to everyone. Zubtutum leaf has a long history of use in folk medicine. We will touch on some of the main ways of using zubtutum leaf in folk medicine.

**Key words:** allantoin, flavonoid, eczema, cytotoxin.

Zubtuum barglarida yallig'lanishga qarshi xususiyatlarga ega bo'lgan alantoin va flavonoidlar kabi biologik faol moddalar bo'lib, zubtuumdan foydalanish tanadagi yallig'lanishni kamaytirishga yordam beradi va artrit yoki astma kabi yallig'lanish kasalliklari bilan bog'liq simptomlarni yengillashtiradi. Zubtuum barglarida tirnash xususiyati va shilliq pardalarni himoya qilishga yordam beradigan shilliq moddalar ham mavjud. Bu yo'tal, tomoq kasalliklari, ekzema va kuyish kabi teri muammolarini davolashda foydalaniladi. Zubtuumning bu dorivorlik xususiyatlarini kichik tadqiqot asosida o'rganib chiqdik. Uy sharoitida katta zubtuum bargidan oshqozon-ichak faoliyatini yaxshilash uchun damlama tayyorlash mumkin. Buning uchun zubtuumning 5-6 ta barglarini soya joyda quritib, 1 stakan qaynagan suvga solib, 1 soat damlanadi. Suzib, 3-4 mahal 1 osh qoshiqdan ichiladi. Zubtuum preparatlari oshqozon kislotaligi ortiqchiligi bilan kechuvchi oshqozon yarasida tavsiya etilmaydi. Oshqozon kislotaliliga pastligi bilan kechuvchi gastritda zubtuum urug'idan qaynatma tayyorlanadi: 2 osh qoshiq urug'ni 1 stakan qaynagan suvga solib, past olovda 10 daqiqa qaynatiladi. Suzib, kuniga 1 marta 1 osh qoshiqdan ichiladi. Bundan tashqari, zubtuumning quritilib maydalangan barglaridan balg'am ko'chirish uchun damlama tayyorlanadi: 1 oshqoshiq maydalangan barglarni 1 stakan qaynagan suvga solib, 15 daqiqa damlanadi. Keyin suzib, kuniga 2-3 mahal 2 oshqoshiqdan ichiladi. Samarqand shahar 2-Oilaviy poliklinikasida ro'yxatda turuvchi, oshqozon-ichak kasalliklari bilan kasallangan 42 nafar, 28 (66.67%) erkak, 14 (33.33%) ayol bemorlar tekshirishdan o'tkazildi. Bemorlar yoshi 23 yoshdan 48 yoshgacha. Asosiy guruhidagi bemorlarga standart davolash vositalari bilan birgalikda, kuniga uch mahaldan 10 kun davomida zubtuum bargi damlamasi berib borildi va ulardagi o'zgarishlar kuzatildi. Asosiy guruhdagi 23-30 gacha bo'lgan bemorlarning sog'ayish darajasi zubtuum bargi damlamasi qabul qilinganda nazorat guruhdagi bemorlarga nisbatan ikki marta tezroq kuzatildi, 30-48 yoshgacha bo'lgan bemorlarning sog'ayish darajasi zubtuum bargi damlamasi qabul qilinganda nazorat guruhdagi bemorlarga nisbatan bir yarim marta tezroq kuzatildi. Nazorat guruhdagi bemorlarda esa statsionarda davolanish asosiy guruhdagi bemorlarga nisbatan cho'zildi. Zubtuum bargi damlamasi oshqozon-ichak kasalliklari bilan kasallangan bemorlarga

asosiy dori vositalari bilan birga kuniga uch mahaldan 10 kun davomida berib borildi va ulardagi o'zgarishlar quyidagicha bo'ldi: asosiy guruhdagi bemorlarning sog'ayish darajasi zubtutum bargi damlamasi qabul qilinganda, nazorat guruhdagi bemorlarga nisbatan bir yarim, ikki marta tezroq kuzatildi. Nazorat guruhdagi bemorlarda esa statsionarda davolanish asosiy guruhdagi bemorlarga nisbatan cho'zildi. Zubtutum bargi damlamasining bemorlar sog'ayishi uchun ijobiy ta'siri aniqlandi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Алтыбоева М., Норкулова З., Худойбердыева З. СВОЙСТВА РАСТЕНИЯ SALVIA SUBMUTICA //Иновационные исследования в современном мире: теория и практика. – 2023. – Т. 2. – №. 10. – С. 10-11.
2. G'ulomovna, O. M., INTESTINAL, S. B. M. V. O., & MICROFLORA, I. CHILDREN//Nauchnyy Fokus.-2023. T, 1, 279-282.
3. Altyboeva M. G., KISHECHNUY B. N. S. S. V. N. A., MIKROFLORU U. DETEY//Nauchnyy Fokus.-2023 //T. – T. 1. – С. 109-112.
4. Sadriddinovna A. S., Gulyamovna A. M. The relevance of the meaning of plantain in folk medicine //Eurasian Medical Research Periodical. – 2023. – Т. 19. – С. 49-50.
5. Alikovna J. F. et al. SALVIA O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2023. – Т. 6. – №. 2. – С. 217-218.
6. Mavsuma O. medicinal properties of sea buckthorn (Hippophae Rhamnoides L.) OIL PLANT //Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – С. 1-3.
7. G'ulomovna O. M., Sobirjonovna B. N. MODERN VIEWS ON INTESTINAL MICROFLORA IN CHILDREN //Научный Фокус. – 2023. – Т. 1. – №. 6. – С. 279-282.
8. Жураева Б. Г., Пулатов Ф. А. ИЗГОТОВЛЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ЛЕКАРСТВЕННЫХ ПРЕПАРАТОВ, КОСМЕТИКИ И БИОЛОГИЧЕСКИ АКТИВНЫХ ДОБАВОК И ОБЕСПЕЧИВАНИЕ ИХ КАЧЕСТВА //Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2024. – Т. 20. – №. 1. – С. 120-123.
9. Azizxonovna N. M. POSITIVE AND NEGATIVE ASPECTS OF MEDICAL CANNABIS //Web of Medicine: Journal of Medicine, Practice and Nursing. – 2024. – Т. 2. – №. 3. – С. 38-41.